

“Uzbekistan Airways”
AJ Yagona aksiyadorining 2019 yil “18”
oktabr kungi 4-sonli qarori bilan
“TASDIQLANDI”

“UZBEKISTAN AIRWAYS”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING AXBOROT SIYOSATI
BO`YICHA YO`RIQNOMA

TOSHKENT - 2019

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur axborot siyosati haqidagi Yo`riqnoma (kelgusida - Yo`riqnoma) O`zbekiston Respublikasining “Qimmatli qog`ozlar bozori to`g`risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to`g`risida”gi, “Qimmatli qog`ozlar bozorida ma`lumotlarni taqdim etish va tarqatish tartibi to`g`risida”gi (O`zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 31.07.2012y. 2383 soni bilan ro`yxatdan o`tgan) Qonunlari, “Aksiyadorlik jamiyatidagi korporativ veb-saytlarga bo`lgan talablarning qoidalari” (O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.07.2014 y. 176-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Joylardagi davlat hukumat organlari, davlat va xo`jalik boshqaruv organlarining rasmiy veb-saytlariga bo`lgan asosiy talablar” Qarori, “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyatining Nizomi (kelgusida Jamiyat, hamda korporativ boshqarish Kodeksi tavsiyalari (31.12.2015y. kungi 9-sonli bayonnoma)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. O`zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog`ozlar bozori to`g`risida”gi Qonuniga muvofiq axborotning oshkor qilinishi qimmatli qog`ozlar bozori to`g`risidagi ma`lumotlarning, ushbu ma`lumotni qayerda joylashganligi va olinishini kafolatlaydigan shaklda olishdan qat`i nazar, manfaatdor tomonlarga taqdim etilishini ta`minlaydi. Mazkur Yo`riqnoma Jamiyatning axborot siyosatini maqsadi, asoslari va yo`nalishlarini, qonunchilik talabiga muvofiq oshkor etilishi shart bo`lgan ochiq axborotlarni fosh qilish qonuni va yo`llarini, korporativ boshqarish Kodeksining talablariga muvofiq Jamiyat tomonidan oshkor qilinadigan qo`shimcha axborotlar ro`yxati, Jamiyat haqidagi oshkor qilinishi lozim bo`lgan axborotni, ijro organining majburiyatlarini, aksiyadorlarga axborot va hujjatlarni taqdim etish tartibini belgilaydi, shuningdek manfaatdor shaxslar bilan axborot almashish tartibini va axborotning maxfiylikka kiritish mezonini aniqlaydi.

3. Mazkur Yo`riqnoma Jamiyat boshqaruv organining a`zolari, mansabdor shaxslari va xodimlari uchun rioya etilishi shart.

II. Jamiyatning axborot siyosatining maqsadi, asoslari va yo`nalishlari

4. **Jamiyatning axborot siyosatining maqsadi** - Jamiyat faoliyatining aksiyadorlar, investorlar, mijozlar, kreditorlar, sheriklar, ta`minotchilar, qimmatli qog`ozlar bozorining professional ishtirokchilari, davlat organlari, jamoatchilik va boshqa manfaatdor shaxslar (kelgusida manfaatdor shaxslar)ning axborotga bo`lgan ehtiyojini, Jamiyat va uning faoliyati haqidagi haqqoniy axborotga Jamiyat faoliyatining ochiq va shaffofligini ta`minlashdir.

5. **Jamiyatning axborot siyosatini asosiy asoslari** - axborot resurslarining muntazamliligi, tezkorligi, hammabopligi, to`liqligi, teng huquqliligi, balansliligi, himoyalanganliligidir.

6. **Muntazamlilik asosi** - Jamiyat tomonidan manfaatdor tomonlarga doimiylik asosida Jamiyat haqida axborotlarni yetkazib berishga yo`naltirilgan.

7. **Tezkorlik asosi** - Jamiyatning moliyaviy-xo`jalik faoliyatiga ta`sir ko`rsatuvchi mavjud voqealar va haqiqatlar haqida qisqa muddatlarda manfaatdor shaxslarni xabardor qilishni bildiradi.

8. Axborotni hammaboplik asosi ostida, Jamiyat o`z faoliyati to`g`risida ma`lumot tarqatish usullaridan foydalanadi, manfaatdor shaxslarning oshkor qilinadigan ma`lumotlarga bepul, oson va tanlanmasdan kirishini ta`minlanish tushuniladi.

9. To`liqlik asosi Jamiyat faoliyatining natijalari haqida, bunda haqiqatga to`g`ri keluvchi o`zi haqidagi salbiy axborotlarni oshkor qilishdan o`zini chetga olmasdan, Jamiyat haqidagi to`liq tasavvurni shakllantirishga imkon beradigan axborotlarni taqdim etishi tushuniladi.

10. Teng huquqlik asosi barcha manfaatdor shaxslarga Jamiyatning faoliyati haqidagi ma'lumotlarni olish va bepul, oson va tanlanmasdan kirishini, teng huquqligini ta'minlanish tushuniladi.

11. Balans asosi Jamiyatning ochiqdigi va shaffofligi va uning tijorat manfaatlarini ta'minlash o'rtasida oqilona muvozanatni saqlashni ta'minlaydi. Bunda quyidagilar majburiydir:

a) maxfiy ma'lumotni himoya qilish;

b) Jamiyatning ichki hujjatlari va qonunchilikda belgilangan moliyaviy vositalarining bahosiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish yoki undan foydalanish tartibiga rioya etish.

12. Himoya qilinganlik asosi maxfiy ma'lumot yoki tijorat, xizmat yoki boshqa sir hisoblangan ma'lumotlarni himoya qilish, qonunchilikda ruxsat berilgan vositalari va usullaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

13. Axborot siyosati quyidagi yo'nalishlarda ishlatiladi:

a) qonunchilik talablariga muvofiq oshkor qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni Jamiyat tomonidan oshkor qilinishi;

b) korporativ boshqaruv Kodeksining tavsiyalariga muvofiq qo'shimcha ma'lumotlarni Jamiyat tomonidan oshkor qilinishi;

v) aksiyadorlarga ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish;

g) manfaatdorga ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish;

d) Jamiyatning mansabdor shaxslariga va boshqarish organlariga ma'lumotlarni oshkor qilish.

III. Qonunchilik talablariga muvofiq Jamiyat tomonidan tarqatilishi shart bo'lgan ochiq ma'lumotlarni tarqatish tartibi va yo'llari

14. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarni huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonuniga (106 moddasi "Jamiyat haqida ma'lumot") asosan, Jamiyat qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda Jamiyat haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilishi lozim.

15. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, ma'lumotning oshkor qilinishi - ushbu ma'lumotni qanday maqsadda olinayotganligidan qat'i nazar, qayerda joylashganligi va olinishini kafolatlaydigan, manfaatdor shaxslarga qimmatli qog'ozlar bozoridagi ma'lumotlarning hammabopligini ta'minlashdir.

16. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi, "Qimmatli qog'ozlar bozorida ma'lumotlarni taqdim etish va tarqatish tartibi" (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 31.07.2012y. 2383 soni bilan ro'yxatdan o'tgan) haqidagi Qarorlar, "Aksiyadorlik jamiyatidagi korporativ veb-saytlarga bo'lgan talablarning qoidalari" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.07.2014y. kuni 176-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Joylardagi davlat hukumat organlari, davlat va xo'jalik boshqaruv organlarining rasmiy veb-saytlariga bo'lgan asosiy talablar" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2013y. 355-sonli "O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsion texnologiyani rivojlantirish holatini Qarori bilan tasdiqlangan) va qonunchilikning boshqa bayonnomalari bilan belgilangan hajm, muddat va usullarida oshkor qilinishi shart bo'lgan ochiq ma'lumotni oshkor qiladi.

17. Jamiyat tomonidan axborotni oshkor qilinishi shart bo'lgan quyidagi axborot vositalari orqali amalga oshiriladi:

- a) korporativ axborotning Yagona portalida (qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha davlat organi vakilining rasmiy veb-saytida);
- b) jamg'arma birjasining rasmiy veb-saytida (www.uzse.uz);
- v) Jamiyatning korporativ veb-saytida;
- g) ommaviy axborot vositalarida.

18. ***Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha davlat organi vakilining rasmiy veb-saytida*** oshkor qilinishi shart bo'lgan quyidagi axborot va hujjatlar oshkor qilinadi:

- a) qimmatli qog'ozlar risolasi bilan tanishish joyi va tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek emissiya risolasida keltirilgan quyidagi ma'lumotlar;
- b) emitentning to'liq va qisqartirilgan nomlanishi, uning manzili (pochta manzili) bank rekvizitlari, huquqiy shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, davlat statistika va soliq xizmati organlari tomonidan berilgan ro'yxat va identifikatsion raqamlari;
- v) faoliyatning asosiy yo'nalishi va ishlab chiqariladigan mahsulotning turlari (xizmatlari);
- g) kerakli sharhlar bilan mustaqil reyting baholari – agar mavjud bo'lsa;
- d) qimmatli qog'ozlar chiqarish haqidagi qarorlarga muvofiq qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish shartlari. Mazkur axborot qimmatli qog'ozlarni joylashtirishdan ikki hafta oldin oshkor qilinadi, qimmatli qog'ozlarni xususiy joylashtirish bundan mustasno;
- e) Jamiyatning yillik hisoboti;
- j) Jamiyatning birinchi chorak, birinchi yarim yillik va to'qqiz oylik hisobot natijalari;
- z) Jamiyatning faoliyatidagi ahamiyatga ega bo'lgan faktlar.

Jamiyat yuqoridagi ma'lumotni qimmatli qog'ozlar bozorida ma'lumotlarni taqdim etish va e'lon qilish Qoidalarida belgilangan muddatlarda va shakllarda oshkor qiladi (Adliya Vazirligida 31.07.2012y. 2383-soni bilan ro'yxatga olingan).

19. Jamg'arma birjasining kotirovka varog'ida Jamiyatning qimmatli qog'ozlari kiritilgan va (yoki topilgan) taqdirda, Jamiyat jamg'arma birjasining rasmiy saytida qo'shimcha oshkor qiladi:

- a) Mazkur Nizomning 18 b. ko'rsatilgan axborot;
- б) Jamiyatning Nizomi va unga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalari;
- b) birja byulleteni haqidagi Nizom talablariga muvofiq kerakli axborotni.

20. ***Ommaviy axborot vositalarida*** oshkor etilishi lozim bo'lgan quyidagi ma'lumot oshkor etiladi:

- a) aksiyadorlar umumiy yig'ilishini chaqirish haqidagi xabarnomasi. Mazkur ma'lumot aksiyadorlarni yillik umumiy majlisi o'tkazilish sanasiga 7 kundan kechiktirmasdan, ammo 30 kundan oldin bo'lmaganida e'lon qilinadi;
- b) moliyaviy hisobotni xalqaro standartlariga muvofiq, audit xalqaro standartlariga muvofiq, uning tashqi auditi o'tkazilganidan so'ng, tuzilgan yillik moliyaviy hisobotlar. Mazkur ma'lumot aksiyadorlarni yillik umumiy majlisi o'tkazilish sanasiga ikki haftadan kechiktirmasdan e'lon qilinadi;
- v) aksiyadorlarni Jamiyatning manzili (pochta manzili) va elektron pochtasini manzili o'zgartirilganligi haqidagi xabarnoma. Ushbu ma'lumot olingan kundan boshlab, ikki ish kuni ichida oshkor qilinadi;

g) imtiyozli huquqqa ega bo'lgan aksiyadorlarga, aksiyalarni sotib olish yoki o'zgartirilgan aksiyalarga ayriboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni chiqarish to'g'risidagi taklif. Ushbu ma'lumot olingan kundan boshlab, aksiya yoki o'zgartirilgan aksiyalarga ayriboshlanadigan qimmatli qog'ozlar chiqarilishini davlat ro'yxatiga olingan sanasidan o'n kun ichida oshkor qilinadi;

d) joylashtirilgan aksiyalarni Jamiyat tomonidan sotib olinishi haqidagi ma'lumot. Mazkur ma'lumot aksiya sotib olish boshlanish muddatiga 10 kun oldin kechiktirmasdan e'lon qilinadi;

e) Jamiyatni tugatilishi, shuningdek uning kreditorlarini talabnomalarini kiritish tartibi va muddati haqidagi ma'lumot. Mazkur ma'lumot emitent oliy boshqaruvining bayonnomasi tuzilgan sanadan ikki ish kuni mobaynida e'lon qilinadi;

O'zining rasmiy korporativ veb-saytida Jamiyat quyidagi majburiy axborotni oshkor qiladi:

a) "Aksiyador jamiyatlarining korporativ vey-saytiga talablar haqidagi Qoidalar" (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 02.07.2014 y. "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror bilan tasdiqlangan) ro'yxatida belgilangan ma'lumotlar;

b) yillik hisobot;

v) choraklik hisobot;

g) muhim faktlar;

d) qonunchilik talablariga muvofiq boshqa ma'lumotlar.

Jamiyatning veb-saytidagi majburiy ma'lumotlar davlat tilida oshkor qilinadi, shuningdek, boshqa tillarda ham oshkor qilinishi mumkin.

IV. Korporativ boshqaruv Kodeksining tavsiyasiga muvofiq Jamiyat tomonidan qo'shimcha ma'lumotlarni oshkor qilish ro'yxati va tartibi

21. Jamiyat ma'lumotni oshkor qilishda, rasmiyatchilik bilan yondoshishdan chetga chiqib, o'z faoliyati haqidagi ahamiyatli ma'lumotlarni, hatto bu ma'lumotlarni oshkor qilish qonunchilikda ko'zda tutilmagan bo'lsa ham, oshkora qilishi lozim.

Jamiyat nafaqat o'zi haqidagi ma'lumotni, balki o'zi uchun ahamiyatli mazmunga ega bo'lgan, uning bo'ysunuvidagi huquqiy shaxslar haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilishi lozim.

22. Qonunchilikda ko'zda tutilgan ma'lumotlar bilan bir qatorda, Jamiyat qo'shimcha ravishda quyidagilarni oshkor qilish majburiyatini oladi:

a) Jamiyatda qabul qilingan, Jamiyatning vazifalari va siyosati, korporativ qimmatliklari, uzoq muddatli va o'rta muddatli strategiyasi, missiyasi haqidagi ma'lumotlar;

b) Jamiyatning investitsion loyihalar shaklida amalga oshiriladigan, kutilayotgan sof foydani ko'rsatgan holda, kengaytirish, qayta qurish, rekonstruksiya va texnik qayta jihozlash rejalari;

v) Jamiyat aksiyalarini kotirovkasi bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lganida, shuningdek fundamental va texnik tahlili, mutaxassilar, ekspertlar va maslahatchilarning sharhlari va tahminlari;

g) taklif qilingan sof foyda, dividend miqdorini taqsimlashni asoslash, Jamiyatda qabul qilingan dividend siyosatiga muvofiqligini baholash, shuningdek, zaruriy holatlarda, jamiyatni rivojlantirish ehtiyojida sof foydani ma'lum qismida yo'nalish hajmlarini iqtisodiy asoslash va

izohlash;

d) Jamiyatning biznes turlari bo'yicha, kapital qiymatining ahamiyati bo'lganida va mazkur ko'rsatkichlarni ahamiyatini asoslagan holda, Jamiyat kapitalining o'rtacha olingan qiymati;

e) Jamiyatning ijro organi haqida ma'lumotlar, shu jumladan mazkur Jamiyatda ishlagan davri;

j) Jamiyat ijro organing foaliyatini samaradorligini baholash natijalari;

z) xayriya (sponsor) yoki beminnat yordam ko'rsatish (olish) tartibi, usullari va shu haqidagi qarorni qabul qilish haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, aslida ko'rsatilgan (olingan) xayriya (sponsorlik) yoki beminnat yordam summalari;

i) Jamiyatning moliyaviy ahvoli to'g'risida qo'shimcha ma'lumot; Jamiyatning kapital tizimi haqida ma'lumot; korporativ boshqaruv ahvoli haqida ma'lumot; Jamiyatning ijtimoiy va ekologik javobgarlik sohasidagi ma'lumot.

23. Jamiyatning moliyaviy faoliyati va moliyaviy ahvoli to'g'risidagi quyidagi qo'shimcha ma'lumotni oshkor qilish majburiyatini oladi:

a) hisobot davrida, ko'rish uchun imkon beradigan auditorlik tekshirish va auditorlik xulosa bo'yicha hisobotlar bilan birga xalqaro standartdagi moliyaviy hisobotga (HSMH) muvofiq tuzilgan, joriy yilning olti oyidan iborat bo'lgan, oraliq moliyaviy hisobot;

b) Jamiyatning ijro organi yillik va oraliq moliyaviy hisobotiga sharhlar, o'z ichiga moliyaviy holati va uning faoliyatini natijalari, shu jumladan rentabellik, moliyaviy barqarorligi, aktiv va passivlar tarkibi va tizimida o'zgarish bahosi, aktivlarni joriy va istiqbolli likvidlarini baholash, kelajakda jamiyatning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar va yo'nalishlarni tavsifi;

v) Jamiyatning faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha mavjud bo'lgan xavf-xatarlar;

g) Jamiyatning va uning nazorati ostidagi huquqiy shaxslarning jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan bitimlari (shu jumladan hamkorlari bilan va Jamiyat nazorati ostida bo'lgan bir va (yoki) bir necha huquqiy shaxslari bilan tuzilgan bitimlar haqidagilar);

d) Jamiyat uchun jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan nazorat ostidagi huquqiy shaxs ustidan nazorat darajasini o'zgarish haqida axborot;

e) Jamiyatning va Jamiyat uchun ahamiyatga ega bo'lgan uning nazorati ostidagi tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga doir jiddiy ahamiyatli voqealar haqidagi boshqa axborotlar.

24. Jamiyat uchun jiddiy ahamiyatli uning nazorati ostidagi huquqiy shaxslar (nazorati ostidagi ahamiyatli huquqiy shaxslar) deganda, Jamiyat tomonidan boshqariladigan, jamiyat nazorati ostidagi tashkilotlarni aktivlarning besh foizidan kam bo'lmagan birlashtirilgan qiymati yoki besh foizdan kam bo'lmagan birlashtirilgan kirim nazorat ostidagi tashkilotlar, ularning har biri uchun konsolidatsiya qilingan hisobotning kamida besh foizi egalik qilishi, shuningdek, Jamiyat va uning nazorati ostidagi huquqiy shaxslar kirgan tashkilot guruhlarining moliyaviy holatini o'zgarishi, faoliyatining moliyaviy natijasi, Jamiyat nuqtai nazaridan uning moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi, Jamiyatning nazorati ostidagi boshqa tashkilotlar tushuniladi.

25. Jamiyat kapital tizimi haqidagi quyidagi qo'shimcha axborotni oshkor qilish majburiyatini oladi:

a) Jamiyat aksiyadorlarining soni haqidagi ma'lumot;

b) Jamiyatning 20 foizdan ortiq aksiyasiga ega bo'lgan aksiyadorlar haqida ma'lumot;

v) kategoriya (turlar)ga bo'lingan ovoz beruvchi aksiyalarning soni, shuningdek Jamiyat va uning nazorati ostida bo'lgan huquqiy shaxslarning tasarrufidagi aksiyalar soni haqida ma'lumot;

g) to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita aksiyalarga egalik qilayotgan shaxslar va (yoki Jamiyat nizom kapitalining 5 va undan ortiq foizida aksiyalarni foydali sotib oluvchilar haqida axborot;

d) Jamiyatning Ijro organini Jamiyat tomonidan ochilgan 5 foizdan ortiq aksiya ulushi borligi haqidagi ma'lumotlar yo'qligi haqidagi arizasi;

e) Jamiyatning nizom kapitalidagi ishtirokiga to'g'ri kelmaydigan ma'lum aksiyadorlar tomonidan olishi mumkin bo'lgan yoki oladigan nazorat darajasi, shu jumladan, aksiyador bitimlari haqida ma'lumot.

26. Jamiyat korporativ boshqarmasi sohasida quyidagi qo'shimcha axborotni oshkor qilish majburiyatini oladi:

a) Jamiyat tomonidan korporativ boshqarish Qonunning yo'riqnomalari izidan borish va unga amal qilish majburiyatini olgani haqidagi axborot. Agar Qonunning ayrim yo'riqnomalariga rioya qilish imkoni bo'lmasa, xalqaro «comply or explain» («rioya qil va tushuntir») asosiga asosan, Jamiyat ommaviy axborot vositalarida batafsil sabablarini oshkor qiladi.

b) dividendlarni hisob-kitobini shaffof mexanizmi;

v) manfaatlar nizosi kelib chiqqan vaziyatni ta'rifi;

g) baholashni o'tkazgan, mustaqil tashkilot tomonidan o'tkazilgan Jamiyatning korporativ boshqaruvi holatini baholash natijalari;

d) boshqa ma'lumotlar.

27. Jamiyat ijtimoiy va ekologiya javobgarligi sohasidagi quyidagi qo'shimcha ma'lumotni oshkor qilish majburiyatini oladi:

a) ijtimoiy va ekologiya sohasidagi Jamiyatning siyosati;

b) texnik audit natijalari, sifat nazorati tizimini auditi, xalqaro standartlarning talablariga muvofiq ekanligini boshqaruv sifati tizimining sertifikatlashtirish natijalari.

28. Jamiyat tomonida korporativ boshqaruv Qonuni tavsiyasiga muvofiq qo'shimcha axborotni oshkora qilish quyidagi axborot vositalari orqali amalga oshiriladi:

a) Jamiyatning korporativ veb-saytida;

b) jamg'arma birjasi saytida;

v) OAV da;

g) axborotni oshkor qilish uchun qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa manbalarda.

Aksiyadorlar, investorlar, shu jumladan chet el va Jamiyatning boshqa manfaatdor shaxslari uchun qulaylik yaratish maqsadida, Jamiyat davlat tilidagi barcha axborotni kerakli tillarga tarjima qilgan holda ingliz, rus va boshqa tillardagi saytlarni yaratish orqali Jamiyatning rasmiy veb-saytini takomillashtiradi.

29. Qo'shimcha axborot, shuningdek, Jamiyatning umumiy majlislarida oshkora qilinishi mumkin. Kuzatuv kengashi va ijro organlarining mukofot va rag'batlantirish miqdori haqidagi axborot Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishida oshkor qilinishi va aksiyadorlarning umumiy majlis bayonnomasiga kiritilishi ham mumkin.

30. Jamiyat axborotni oshkor qilish uchun qonunchilikda ko'zda tutilgan boshqa manbalardan ham Jamiyat haqidagi axborotlarni oshkor qilishini ta'minlaydi.

V. Ma`lumotlarni oshkor qilishda ijro organining majburiyati

31. Jamiyatning faoliyati haqidagi axborotni to`plash, tayyorlash va oshkor qilish – Qonunning tavsiyanomalariga muvofiq va qonunchilik talablariga muvofiq, korporativ munosabatlarni aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxs (boshqarma, bo`lim, sektor)lar bilan amalga oshirish vazifasi yuklatilgan, korporativ Jamiyatning tizimli bo`linmasi tomonidan boshqaruv amalga oshiriladi.

32. Kerakli axborotni o`z vaqtida, sifatli tayyorlash va oshkor qilish uchun ko`rsatilgan Jamiyatning tizimli bo`linmasi Jamiyatning boshqa tizimli bo`linmalari bilan o`zaro ta`sir Reglamenti Ijro organi rahbarining buyrug`i bilan tasdiqlanadi.

33. Ijro organi kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi, ichki audit xizmati va korporativ maslahatchilarga Jamiyatning ko`rsatilgan tizimli bo`linmalari bo`yicha kerakli bo`lgan axborot va hujjatlarni o`z vaqtida yetkazilishini tashkil qiladi.

34. Ijro organi Jamiyatning ko`rsatilgan tizimli bo`linmalariga kerakli ma`lumotlar va hujjatlarni, Jamiyatning barcha tizimli bo`linmalari tomonidan o`z vaqtida taqdim qilinishini tashkil etadi.

35. Oshkor qilinayotgan ma`lumotni o`z vaqtida, to`liqligi, aniqligiga ijro organining rahbari javobgardir.

36. Ijro organing rahbari har chorakda kuzatuv kengashining majlislarida, axborotni oshkor qilish talablariga rioya qilinishi haqidagi hisobot topshiradi.

VI. Jamiyat aksiyadorlariga axborotni taqdim etish

37. Aksiyadorlarning Jamiyatni ma`lumotlari va hujjatlariga, shu jumladan Jamiyat oshkor qilmaydigan narsalarga kirish huquqi, boshqalardan tashqari, jamiyatning nazorat qiluvchi shaxslari va uning boshqaruv organlari a`zolarining javobgarligini ta`minlash mexanizmining eng muhim elementlaridan biri bo`lib, Jamiyat aksiyadorlariga yetkazilgan zararni qoplash uchun da`volarni asoslashga imkon beradi.

38. Jamiyat tomonidan aksiyadorlarga ma`lumot yetkazishda, aksiyadorlar manfaatleri va Jamiyatning raqobatchilik qobiliyatiga muhim ta`sir ko`rsatishi mumkin bo`lgan, muhim tijorat ma`lumoti maxfiyligini saqlashdan manfaatdor aniq aksiyadorlar manfaatleri va Jamiyat o`zining manfaatleri o`rtasidagi mulahazali balansni ta`minlash.

39. Jamiyatning minoritar aksiyadori tijorat siri hujjatini, xizmat yoki boshqa maxfiy ma`lumotni talab qilib olish va undan foydalanish yo`li bilan Jamiyat boshqaruv faoliyatiga to`squin bo`lmasligi kerak.

40. Jamiyat qonunchilik talablariga muvofiq kerakli ma`lumotlarni yetkazib berishi shart.

41. Majburiy ma`lumotlar aksiyadorlarga OAV, elektron pochta, yozma xabarnomalar orqali, shuningdek aksiyadorlarning talabnomalariga muvofiq taqdim etiladi.

42. Qonunchilik talablariga muvofiq aksiyadorlarga taqdim etiladigan majburiy ma`lumotlar ro`yxati:

a) qimmatli qog`ozlar emissiya risolasi. Mazkur hujjat bilan Jamiyatning qimmatli qog`ozlarni ochiq joylashtirishi haqida Jamiyatning xabarnomasidagi manzilda yoki talabnomaga asoslangan hujjat orqali tanishish mumkin;

b) Jamiyat aksiyadorlar umumiy yig`ilishini o`tkazish haqida xabar. Mazkur ma`lumot, Jamiyatning rasmiy veb-sayti, ommaviy axborot vositalarida chop etiladi, shuningdek, aksiyadorlar umumiy yig`ilishini o`tkazilish sanasiga 7 kundan kam bo`lmagan, ammo 30 kundan ko`p bo`lmagan muddatda elektron pochta orqali yuboriladi.

v) Jamiyatning yillik umumiy majlisi (Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyat taftish komissiyasining (taftishchining) xulosasi va Jamiyatning yillik moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari), Jamiyat boshqaruv raisi, ishonch bildirilgan boshqaruvchisi bilan bo'lgan shartnoma muddatini uzaytirish, qayta shartnoma tuzish yoki bekor qilish haqidagi kuzatuv kengashining xulosalari, hamda Jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasini a'ziligiga nomzodlar haqidagi ma'lumotlarni, Jamiyat Nizomiga yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Nizomi va boshqalarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish loyihasi) haqidagi ma'lumotlar. Aksiyadorlar mazkur ma'lumotlar bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan manzildan yoki talabnoma orqali olishlari mumkin;

g) aksiyadorlarni navbatdan tashqari umumiy majlisiga tayyorganlik haqidagi ma'lumot. Aksiyadorlar mazkur ma'lumotlar bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi haqidagi xabarnomada ko'rsatilgan manzilda yoki talabnoma orqali olishlari mumkin;

d) o'zining joylashgan manzilini (pochta manzili) va elektron pochta o'zgarganligi haqidagi ma'lumot. Mazkur ma'lumot OAV chop etish orqali taqdim etiladi;

e) Jamiyat aksiyadorlariga, aksiya yoki aksiyalarga ayriboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni, qimmatli qog'ozlar chiqarish haqidagi qarorni qabul qilgan jamiyat boshqaruv organi tomonidan belgilangan, ular joylashtirgan narxda egalik qiladigan aksiyalar soniga mutanosib shartlarda sotib olish haqidagi ma'lumot. Ushbu ma'lumotlar aksiyalarni yoki aksiyalarga ayriboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni chiqarishni, davlat ro'yxatidan o'tkazgan kundan boshlab o'n kun ichida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish yo'li bilan taqdim etiladi.

j) Jamiyat tomonidan joylashtirilgan aksiyalarni qaytarib olish va sotib olish shartlari bo'yicha ma'lumot. Ushbu ma'lumot aksiya qaytarib olish muddatidan o'n kundan kechiktirilmagan muddat ichida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va o'zining rasmiy veb-saytida ma'lumot joylashtirish yo'li bilan taqdim etiladi;

z) Jamiyat tomonidan aksiyadorlardan aksiyalarni sotib olish huquqi borligi va qonunchilikda ko'rsatilgan holatlarda qaytarib olish tartibi haqida ma'lumot. Ushbu ma'lumot Jamiyat tomonidan aksiyalarni yozma xabarnoma orqali qaytarib sotib olish talab qilish huquqi paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan qarorni, qabul qilish sanasidan yetti kun ichida unga taqdim etiladi.

i) Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining natijalari to'g'risidagi ma'lumot. Mazkur ma'lumot aksiyadorlarning talablariga muvofiq taqdim etiladi.

43. Jamiyat aksiyadorlarga, shuningdek, korporativ boshqaruv Kodeksiga muvofiq, qo'shimcha ma'lumotlarni (tijorat siri va boshqa maxfiy ma'lumotlar bundan mustasno) taqdim etadi.

44. Aksiyadorlarga talabnomaga asosan qo'shimcha ma'lumot beriladi.

45. Korporativ boshqarish tavsiyasiga muvofiq aksiyadorlarga beriladigan qo'shimcha ma'lumotlar ro'yxati:

a) kun tartibi bo'yicha kerakli ma'lumotlar, shu jumladan Kuzatuv kengashining aksiyadorlarni umumiy majlisining kun tartibi nomi bo'yicha holati. Mazkur ma'lumot umumiy majlis o'tkazgunga qadar aksiyadorlarga taqdim etiladi;

b) Aksiyador kapitali tuzilishi haqida ma'lumot;

v) Jamiyatning nazorati ostidagi yuridik shaxslar haqida ma'lumotlar. Mazkur ma'lumotni aksiyadorlarga taqdim etishi uchun Jamiyat o'zining nazorati ostidagi tegishli tashkilotlaridan, bunday ma'lumotlarni olishi uchun zarur harakatlarni amalga oshirishi lozim;

g) asoslantirilgan qaror qabul qilishi uchun, aksiyadorlarga kerak bo'lgan boshqa

ma'lumotlar (tijorat siri, xizmat siri va boshqa maxfiy ma'lumotlar bundan mustasno).

46. Aksiyadorlar uchun Jamiyatning ma'lumotlari va hujjatlariga kirish tartibini taqdim etish malol kelmasligi kerak.

47. Aksiyadorlar bilan aloqalarni soddalashtirish maqsadida Jamiyatning korporativ saytida aksiyadorlarning yozma yoki elektron talabnomalari, shu jumladan aksiyadorlarni aloqa ma'lumotlari va ularning bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda yuborilishi mumkin bo'lgan manzil ko'rsatiladi.

48. Jamiyat o'zining texnik qulayligini hisobga olib, aksiyadorlar uchun qulay bo'lgan Jamiyatning ma'lumotlari va hujjatlariga kirish uchun talabnoma yo'nalishi tartibini tashkil qiladi (zamonaviy aloqa vositalaridan foydalanish va elektron shaklda ma'lumot almashish tartibi).

49. Jamiyat aksiyadorlar uchun qulay usul va ularga qulay shakllarda, shu jumladan elektron axborot tashuvchi va zamonaviy aloqa vositalari (hujjatlarni va ma'lumotlarni hujjatlarni nusxasini to'g'riligi va ularni yetkazib berish usullarini tasdiqlovchi, taqdim qilish shakllarida yetkazib berish haqidagi aksiyadorlarni yuborgan talabnomasini hisobga olgan holda)dan foydalangan holda ma'lumotlarni taqdim etadi.

50. Jamiyatning aksiyadorlariga ma'lumot yetkazish majburiyati, aksiyadorlar bilan korporativ aloqalarni qo'llash vazifasi kiruvchi Jamiyatning tizimli bo'linmalari (boshqarma, bo'lim, sektor) zimmasiga yuklatilgan.

51. Ma'lumot berish haqidagi barcha talabnomalar aksiyadorlardan tushgan talabnomalarni ro'yxatga olish maxsus daftarida ro'yxatdan o'tishi kerak.

52. Aksiyadorlardan hujjatlarga kirishga ruxsat berish yoki xato chop etilgan hujjatni berish yoki ahamiyatli bo'lmagan kamchiliklar haqida ma'lumot tushsa, Jamiyat talabnomani qondirishni rad etmasligi kerak. Aksiyadorning talabnomasini qondirish uchun jiddiy kamchiliklar bo'lgan taqdirda, Jamiyatning imkoni bo'lmasa, Jamiyat ularni tuzatishga imkon berish uchun aksiyadorlarga xabar berishi lozim.

53. Ijro organi rahbarining buyrug'i bilan aksiyadorlar, Jamiyatning boshqa tizimli bo'linmalari va Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlari bilan korporativ aloqalarni qo'llash vazifasi kerakli ma'lumotni tayyorlash uchun, Jamiyatning tizimli bo'linmasi (boshqarma, bo'lim, sektor) o'zaro ta'sir Reglamenti tasdiqlanadi.

54. Ma'lumot aksiyadorlarning talabnomalariga asosan, agar qonunchilikda boshqa muddatlar belgilanmagan bo'lsa, bir haftalik muddatda taqdim etiladi.

55. Jamiyat hujjatlar nusxasini tayyorlash va yuborish uchun xarajatlarni sun'iy ravishda oshirmasligi kerak. Xarajatlar qiymati hujjatlarning nusxasini tayyorlash va ularni yuborish uchun ketgan xarajatlarning haqiqiy qiymatidan oshirmasligi kerak.

56. Aksiyadorlar Jamiyat haqidagi yoki uning faoliyati haqidagi, tijorat sirini yoki davlat tomonidan qo'riqlanadigan sirni oshkora qilish huquqiga ega emaslar.

VII. Jamiyat boshqaruv organining a'zolari tomonidan ma'lumotlarni oshkor qilinishi

57. Kuzatuv kengashining raisi yoki uning vakolati bo'lgan kuzatuv kengashining a'zosi, kuzatuv kengashining majlisida ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha, qabul qilgan qarorlarini, shuningdek (intervyu, ommaviy tadbir, telefon konsertsiyalari doirasida va h.k.larda) Jamiyatning tijorat, xizmat va boshqa maxfiy ma'lumotlarini saqlovchi ma'lumotlarni hisobga olgan holda, rasmiy ravishda izohlashi mumkin.

58. Kuzatuv Kengashining a'zolari mulohaza va ma'suliyat asoslariga asoslangan holda, kuzatuv kengashi majlislarida ko'rib chiqilgan masalalar, shuningdek Jamiyatning tijorat siri, xizmat siri va boshqa maxfiy ma'lumotlar bo'yicha, o'z nuqtai nazarlarini oshkora ravishda

bildirishlari mumkin.

59. Jamiyatning ijro organi rahbari, shuningdek Jamiyat kuzatuv kengashining raisi, jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha Jamiyatning ishonchli vakili hamda Jamiyatning boshqa mansabdor shaxslari (ijro organi rahbari tomonidan belgilangan vakolat doiralarda) Jamiyat faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha, Jamiyat nomidan jamoatchilik oldida rasmiy bayonot berishi mumkin.

VIII. AJning boshqaruv va nazorat organi a'zolari, mansabdor shaxslari, xodimlari va manfaatdor shaxslar o'rtasida o'zaro axborot almashish tartibi

60. Jamiyatning axborot siyosatining yo'nalishlaridan biri Jamiyatni investorlar, kreditorlar, sheriklar, xaridorlar, ta'minotchilar, davlat organlari, jamoatchilik va boshqa manfaatdor shaxslar (kelgusida – manfaatdor shaxslar) bilan Jamiyatni o'zaro hamkorligini ta'minlashdir. Jamiyat tomonidan ma'lumotlarni oshkor qilish - bu shaxslar bilan uzoq muddatli aloqalarni va ularning ishonchini shakllanishiga, Jamiyat qiymatini oshirish va kapitalni jalb qilishga yordam beradi.

61. Ijro organi rahbarining buyrug'i bilan, boshqarish organi a'zolari, mansabdor shaxslari, AJ xodimlari va Jamiyatning manfaatdor shaxslari o'rtasida o'zaro ma'lumot almashish uchun, u orqali axborot almashuvini amalga oshiruvchi javobgar shaxs tayinlanadi. Bu Jamiyat aksiyadorlar bilan korporativ aloqalarni qo'llash vazifasi yuklatilgan, tizimli bo'linmasining rahbari bo'lishi mumkin.

62. Mazkur Nizomda ko'zda tutilgan ma'lumotlarni manfaatdor shaxslarining (yozma yoki elektron) talablariga asosan, Jamiyatning mas'ul shaxsi bir hafta davomida, agar qonunchilikda boshqa muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, Jamiyat haqidagi tijorat siri yoki maxfiy barcha ma'lumotni elektron shaklda taqdim etadi.

63. Hujjatlarni nusxasini taqdim etish zarurati tug'ilganida, manfaatdor tomon, hujjatlarni nusxasini tayyorlash va pochta orqali yuborish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini to'lov qiymatidan ortiq bo'lmagan xarajatlar to'lovini amaga oshiradi.

IX. Jamiyat ma'lumotlarini maxfiyligi

64. Jamiyat tomonidan aksiyadorlarga ma'lumot taqdim etilayotganida, Jamiyat raqobatbardoshligiga muhim ta'sir ko'rsatuvchi, muhim tijorat ma'lumotlarini saqlashda manfaatdor, aniq aksiyadorlar va Jamiyatning o'z orasidagi oqilona balansni ta'minlash tavsiya qilinadi.

65. Aniq aksiyadorlar va Jamiyatni o'z manffatlari o'rtasida balansga erishish uchun, hamda qonunchilik talablariga muvofiq (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 24.02.2010 y. 2081-soni bilan ro'yxatga olingan "Emitentlarning maxfiy ma'lumotlarini himoya qilishni tashkil qilish haqidagi Yo'riqnomasi), shuningdek Jamiyatda korporativ boshqarish Kodeksining tavsiyasiga ko'ra – Jamiyatning ma'lumotini maxfiy kategoriyaga o'tkazish tartibini o'z ichiga olgan, Jamiyatning axborot xavfsizligi Yo'riqnomasi - ichki hujjati qabul qilinadi.

66. Jamiyatning ma'lumotini maxfiy kategoriyaga o'tkazish tartibi, ma'lumotlarni maxfiy kategoriyalarga o'tkazishning aniq mezonini va Jamiyatning maxfiy ma'lumotlarini ro'yxatini tuzish tartibi belgilaydi.

67. Jamiyatning axborot xavfsizligi haqidagi Yo'riqnomasi, Jamiyat ma'lumotini maxfiylik ro'yxatini va maxfiy ma'lumotni himoya qilishni tashkil qilish choralarini belgilaydi.

68. Jamiyatning maxfiy ma'lumotlarga aksiyadorlarni kirishi, ma'lumotni maxfiylik xarakteri haqida aksiyador ogohlantirilganida va uning maxfiyligini sir saqlash majburiyatini olganida va shuningdek qonunchilik talabini bajarigan taqdirda amalga oshiriladi.

69. Agar talab qilinayotgan ma'lumotlar xarakteri va hajmi, aksiyadorlar tomonidan Jamiyatning ma'lumotlariga kirish huquqi suiste'mol qilinayotganligi tasdiqlansa, bunda Jamiyatning Ijro organi va kuzatuv kengashi aksiyadorni talabini bajarishga e'tiroz bildirishi mumkin. Bunday e'tirozlar asossiz va ixtiyoriy bo'lishi mumkin emas, chunki aksiyadorlar uchun teng sharoitlarda aksiyadorlar bir xil holatda bo'lishini bildiruvchi shartlarning tengligi asosiga muvofiq bo'lishi kerak.

70. Davlat organlariga maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish qonunchilikda ko'zda tutilgan hodisa va tartiblarda Jamiyat tomonidan amalga oshiriladi.

X. Jamiyat axborot siyosatini nazorat qilishni ta'minlash choralari

71. Jamiyatning axborot siyosati Jamiyatning ijro organi orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumotni to'liqligi, ishonchliligi va o'z vaqtida oshkor qilinishi uchun Jamiyat ijro organing rahbari mas'uldir.

Ijro organining kuzatuv kengashi oldidagi har chorak hisobotida Jamiyatni axborot siyosatiga rioya qilish haqidagi ma'lumotlarni tashkil etadi.

72. Jamiyatning kuzatuv kengashi Mazkur Nizomning bajarilishi haqidagi ijro organining hisobotini har chorakda eshitish yo'li bilan Jamiyatning axborot siyosatini bajarish ustidan nazoratini amalga oshiradi.

Jamiyat haqidagi ma'lumotni o'z vaqtida, sifatli va ishonchli oshkor etish Jamiyat ijro organining faoliyatini samaradorligini baholash va unga mukofot berish uchun shartlar mezonidir.

73. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning mansabdor shaxslariga Kodeks tavsiyalarini bajarmaganligi yoki Kodeksda ko'rsatilgan oshkor qilinmagan ma'lumotlar uchun javobgarlik choralari belgilash huquqiga ega.

74. Mazkur Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

XI. Yakuniy qoidalar

75. Mazkur Yo'riqnoma Jamiyat kuzatuv kengashining qaroriga asosan, kuzatuv kengashining majlisida ishtirok etgan kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan yoki kuzatuv kengashining sirtqi majlisi o'tkazilgan taqdirda kuzatuv kengashi a'zolarining bir ovozdan qabul qilinganidan so'ng kuchga kiradi.

76. Ushbu Yo'riqnomaga qonunchilikning o'zgarishi, Jamiyat Nizomi yoki ichki hujjatlariga o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilishi munosabati bilan, Jamiyat tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilganda va boshqa hollarda o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Mazkur Yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kuzatuv kengashining qaroriga asosan, kuzatuv kengashining majlisida ishtirok etgan kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan yoki kuzatuv kengashining sirtqi majlisi o'tkazilgan taqdirda, kuzatuv kengashi a'zolarining bir ovozdan qabul qilinganidan so'ng kuchga kiradi.

77. Agar mazkur Yo'riqnomaning ayrim moddalari O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi yo'yoki Jamiyat Nizomiga zid bo'lsa, bu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu moddalardagi tartibga solinuvchi masalalar qismi, mazkur Yo'riqnomaga tegishli o'zgartirish kiritilguniga qadar, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik normalariga asoslanadi.